

Chuboyeva Ozodaxon Kuvonbekovna

NamDU dotsenti

Jo'rayev Barkamol Olimjon o'g'li

Namangan davlat universiteti yuridik fakulteti magistri

Annotatsiya: *Ushbu maqolada yangi taxrirda qabul qilingan Mehnat kodeksidagi mehnat bilan bog'liq yangi tendensiyalar borasida fikrlar bildirilgan*

Kalit so'zlar: *mehnat, kodeks, munosabat, xodim, ish beruvchi, sektor, islohot, tendensiya, yoshlar, mehnat kodeksi, iqtisod, jamiyat*

Аннотация: *В данной статье изложены мнения о новых тенденциях в сфере труда, отраженных в недавно принятом Трудовом кодексе.*

Ключевые слова: *труд, кодекс, отношение, работник, работодатель, сектор, реформа, тенденция, молодежь, трудовой кодекс, экономика, общество.*

Abstract: *This article expresses opinions on new trends related to labor in the newly adopted Labor Code*

Keywords: *labor, code, attitude, employee, employer, sector, reform, trend, youth, labor code, economy, society*

KIRISH

Mamalakatimiz rivojlangan davlatlar qatoriga ko'tarilib borar ekan, barcha sohalardagi kabi mehnat munosabatlaridagi normalar ham takomillashim bormoqda.

Mamlakatimizning keng ko'lamli islohotlar fonida mehnat munosabatlarini modernizatsiya qilish, mehnatkashlarning huquq va majburiyatlarini ishonchli himoya qilish rahbarlar va xodimlar uchun qulay va zamonaviy boshqaruv tizimini yaratish juda muhim ahamiyat kasb etadi. Sh maqsadda ishlab chiqilgan va kuchga kiritilgan yangi Mehnat kodeksi yangi tahrirda qabul qilindi.

Adabiyotlar taxlili va metodlar

Shavkat Mirziyoyev fikricha, mehnat shartnomasi xodim uchun munosib mehnat sharoiti, ish beruvchi uchun esa samarali va erkin ish yuritish imkoniyatini berishi kerak. Shu nuqtai nazardan Sh.Mirziyoyev asarlari asosy va rahbariy adabiyot sifatida qabul qilinadi. Tadqiqotda xorijiy adabiyotlar va milliy qonunchiligimiz qiyosiy metodlar asosida tahlil etildi.

Muhokama va natija

Bugungi kunda mehnat resurslari qariyb 19 million kishiga yetdi, korxonalar soni esa so'nggi uch yilda 2 baravar oshdi.

Amaldagi Mehnat kodeksi 1995-yilda qabul qilingan bo'lib, o'shanda xususiy sektor ulushi atigi 21 foiz bo'lgan, hozir 83 foizdan oshgani qayd etildi.

Shu bois, yangi kodeksda tadbirkorlar uchun keng imkoniyatlar yaratilmoqda, aholi bandligini oshirish bo'yicha ko'plab qulay sharoitlar ko'zda tutilmoqda.

Davlatimiz rahbari bu muhim kodeksni qabul qilishdan avval uning ijrosini samarali tashkil qilish asosiy masala ekani ta’kidlandi.

Bo‘layotgan yangiliklarni aholiga, hamma vazirlarga, hokimlarga, 600 mingga yaqin korxonalar rahbarlariga yetkazish, tushuntirish kerakligi ko‘rsatib o‘tildi⁷⁵.

Ushbu qonun avvalgisidan tubdan farq qiladi, murakkab iqtisodiy sharoitlarga moslashgan hamda xalqaro mehnat sharoitlariga moslashgan hamda xalqaro mehnat standartlariga yaqinlashtirilgan normative huquqiy hujjat sifatida mazmunan boyitilgan. Bundan tashqari hozirda rivojlanib borayotgan texnologiyalar va zamonaviy kasblarning yildan yilga soning oshib borishi mehnat huquqi sohasida ham o‘z o‘rnida yangilanish va ushbu sharoitda xodim va ish beruvchining huquq va majburiyatlarini himoya qilishini talab etmoqda.

Avvalgi Mehnat kodeksi uzoq yillar davomida mehnat munosabatlarini solib kelgan bo‘lsa-da, bozor iqtisodiyoti talablariga, xususan, xususiy sektor kengayishi, yangi mehnat shkillari, masofaviy ish va kadrlar siyosati kabi yangilanishlarga to‘liq mos kelmas edi. Shu sababli yangi kodeks nafaqat mavjud muammolarni bartaraf etishga, balki mehnat bozorining kelajak rivojiga ham huquqiy asos yaratishga qaratilgan.

1. Mehnat qiluvchilar huquqlarining mustahkamlanishi va ijtimoiy himoyani kuchayishi.

Yangi tahrirdagi Mehnat kodeksining eng muhim afzalliklaridan biri – xodim manfaatlarini yanada kengroq himoya qilishdir. Avvalgi tartibda ayrim huquqlar noaniq ifodalangan yoki amoliyatda murakkablik tug‘dirar edi. Endilikda:

- Mehnatga bo‘lgan kafolatlar batafsil bayon etilgan

- Ishdan bo‘shatish tartibi qat’iy me‘yorlashtirilgan, noqonuniy ishdan bo‘shatish holatlarining oldi olinmoqda

- Xodimning shaxsiy sha‘ni qadr-qimmatini, diskriminatsiyadan himoyalaniishi, mehnat munosabatlarida tenglik tamoyillarini mustahkamlaydi.

- Mehnat sharoitlari xavfsizligini ta‘minlash bo‘yicha ish beruvchining mas‘uliyatini oshiradi.

Bu o‘zgarishlar xodimning o‘z mehnati evaziga munosib sharoitlarga ega bo‘lishi va huquqlari buzulmasligini kafolatlaydi.

2. Mehnat munosabatlarining mo‘tadil va moslashuvchanligi

Avvalgi mehnat kodeksi ko‘proq qattiq me‘yorlarga asoslangan bo‘lib, ba‘zida iqtisodiy o‘zgarishlarga moslashishda qiyinchilik tug‘dirar edi. Amalgisida esa moslashuvchanlik tamoyili asosida ishlab chiqilgan:

- Masofaviy ish, yarim stavkali ish, vaqtinchalik ish kabi zamonaviy bandlik shakllari huquqiy jihatdan mustahkamlanadi.

- Mehnat shartnomalarining turlari kengayadi, xodim va ish beruvchi o‘rtasida kelishuv imkoniyatlari oshadi.

⁷⁵ Mirziyoyev Sh. <https://xabar.uz>

- Ish vaqti boshqarish tizimi takomillashtirildi, ish vaqti normasi moslashuvchan tarzda belgilanishi mumkin bo‘ldi.

Natijada mehnat bozorida qulaylik paydo bo‘lib, xodim uchun ham, ish beruvchuchi uchun ham manfaatli muhit yaratildi.

3. Xalqaro mehnat standartlariga mutanosibligi

Migratsiyalar jarayoni yangi Mehnat kodeksi ishlab chiqishda Xalqaro Mahnat Tashkiloti tavsiyalari, ilg‘or xorijiy tajribalar o‘rganishni talab etdi. Eski tahrirdagi kodeksda yetarlicha namoyon bo‘lmagan ayrim tamoyillar quyidagicha mustahkamlanadi :

- Bolalar mehnatini cheklash va himoya qilish mexanizmlari kuchaydi.
- Nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun bandlik imkoniyatlari kengaytirildi.
- Gender tengligi, mehnatga kamsitishga yo‘l qo‘ymaslik bo‘yicha aniq me‘yorlar joriy qilindi.

O‘zbekistonning xalqaro maydondagi obro‘cini oshishi hamda xorijiy investorlar uchun ishonchli huquqiy muhit yaratilishi qonun uchun muhim vosita hisoblandi.

4. Mehnat nizolarini hal qilish tizimining takomillashuvi

Amaldagi kodeks mehnat nizolarini hal etishda ham sezilarli yangiliklar yaratadi. Endilikda:

- Nizolarni sudgacha hal etish mexanizmlari rivojlantirildi.
- Tashkiliy – professional kelishuv mexanizmlari kengaytirildi.
- Kasaba uyushmalari rolini kuchaytiruvchi normalar joriy qilindi.

Bu o‘zgarishlar ortiqcha sud jarayonlarining oldini olishga, mehnat jamoalarida sog‘lom muhit saqlashga xizmat qiladi.

5. Ish beruvchilar uchun qulay sharoit va mas‘uliyatning muvozanati

Amaldagi mehnat kodeksi faqat xodim manfaatlarini emas, balki ish beruvchilar manfaatlarini ham e‘tiborga olgan. Avvalgi kodeks ko‘p hollarda ish beruvchilar faoliyatiga ortiqcha byurokratik yuklama berar edi. Endilikda :

- Mehnat hujjatlarini rasmiylashtirish tartibi soddalashtirildi.
- Mehnat munosabatlarida elektron tizimlardan foydalanish imkoniyatini yaratildi.
- Ish beruvchi mas‘uliyati aniq belgilandi, lekin ortiqcha jazolash mexanizmlari yumshatildi.

Natijada korxonalar samaradorligi oshadi, mehnat bozorida raqobatbardoshlik kuchayadi.

6. Yoshlar, ayollar va ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlar manfaatining ustuvorligi

Amaldagi Mehnat kodeksida jamiyatning nogiron, kam ta‘minlangan, yoshlar va ayollar kabi ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlariga alohida e‘tibor qaratilgan:

- Homilador ayollar, onalar va ko‘p bolali ayollar uchun qo‘shimcha kafolatlar berilgan.

- Talabalar, yangi ish boshlayotgan yosh mutaxassislar uchun qulay mehnat sharoitlari yaratilgan.

- Ijtimoiy himoya tizimi bilan uyg‘unlashgan bandlik mexanizmlari kuchaytirildi.

Bu esa ijtimoiy barqarorlik va aholi farovonligini oshirishda muhim omil hisoblanadi.

XULOSA

Amaldagi Mehnat kodeksi Ozbekistonning zamonaviy rivojlanish bosqichiga mos ravishda yaratilgan, xodim va ish beruvchi manfaatlarini muvozanatli tartibga soluvchi, xalqaro mehnat standartlariga mos keluvchi huquqiy hujjatdir. Unda inson manfaatlarini ustuvor qo‘yilgan, mehnatni tashkil etishning zamonaviy mexanizimi aks ettirilgan va mehnat bozorining kelajakda rivojlanishiga puxta zamin yaratilgan.

Amaldagi kodeksning avvalgi kodeksdan asosiy afzalliklari – kengroq kafolatlar, moslashuvchan mehnat tizimi kuchli ijtimoiy himoya, rivojlantirilgan nizolarni hal qilish mexanizimi va xalqaro standartlarga moslashishdadir. Ushbu o‘zgarishlar mamlakatimizning iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyoti, aholi bandligi va farovinligi oshirishda muhim ro‘l o‘ynaydi.

Yangi taxrirdagi Mehnat kodeksi O‘zbekistonning iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotida muhim bosqich bo‘lib, mamlakatda mehnat munosabatlarini zamonaviy talablar asosida qayta ko‘rib chiqish, ularni xalqaro standartlarga yaqinlashtirish hamda inson manfaatlarini ustuvor qilishga xizmat qiladi. Kodeksning avvalgi me‘yoriy hujjatlardan farqili ravishda mehnat bozorida kechayotgan tezkor o‘zgarishlarni hisobga olgan, moslashuvchan, aniq va adolatli yondashuvlarni o‘zida mujassam etgan hujjat sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Eng muhimi, u hodimlarning qonuniy huquq va manfaatlarini yannada kengroq himoya qilish bilan birga, ish beruvchilar uchun ham qulay va aniq huquqiy maydon yaratadi.

Amaldagi kodeks mehnatga oid munosabatlarda inson sha‘ni va qadr-qimmatini hurmat qilish, adolat tenglik, kamsitishlardan himoyalani kabi demokratik tamoyillarni mustahkamlash bilan bir qatorda, xafsiz va sog‘lom mehnat sharoitlarini taminlash, mehnatga haq to‘lashning shaffofligi, barqaror bandlik tizimini rivojlantirishga xizmat qiladi. Masofaviy ish, moslashuvchan ish vaqti, qisqartirilgan ish rejimi kabi zamonaviy bandlik shakllarining qonuniy asosga ega bo‘lishi esa bozor iqtisodiyoti talablariga mos ravishda ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Shuningdek, kodeks yoshlar, ayollar, nogronligi bo‘lgan shaxslar va ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlar uchun keng imkoniyatlar yaratgani bilan ham ahamiyatlidir. Ularga qo‘shimcha kafolatlar, ishga joylashida yangiliklar va maxsus mehnat sharoitlarining belgilanishi jamiyatda ijtimoiy adolat va ijtimoiy barqarorlikni ta‘minlashda muhim o‘rin tutadi. Mehnat nizolarining hal etishning yangi va soddalashtirilgan mexanizmlarining joriy etilishi esa kelgusida ishchi va ish beruvchi o‘rtasida kelishmovchiliklarni tezkor, adolatli va ochiq tarzda hal etishga imkon beradi.

Umuman olganda, yangi Mehnat kodeksi nafaqat mehnat munosabatlarini tartibga soluvchi huquqiy hujjat, balki O‘zbekistonda asosatli, insonparvar, zamonaviy va samarali mehnat tizimini barpo etishga xizmat qiluvchi muhim islohatlar dasturidir. Uning ijro etilishi mamlakat iqtisodiy salohiyatining oshishiga, xalq farovonligi yuksalishiga va O‘zbekistonning xalqaro maydondagi nufuzining oshishiga xizmat qiladi.

1.Mirziyoyev Sh.M. Shavkat Mirziyoyev Mehnat kodeksi loyihasiga to‘xtaldi.
<https://xabar.uz>

2.O‘zbekiston Respublikasining “Mehnatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi Qonuni (yangi tahriri) // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2016-y., 38-son, 441-modda; Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 05.01.2018-y., 03/18/456/0512-son.

3.O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi. T.: // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 30.12.2022-y.

4.Gasanov M.YU., Soklov E.A. Mehnat shartnomasi(kontrakt). Iqtisodiyot va huquq dunyosi. 1999-y. 527 b.